



BUXORONING XONLIK VA AMIRLIK DAVRIDAGI ROSSIYA BILAN ELCHILIK ALOQALARI

Jo‘rayeva Zuhra Jalol qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tarix yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada XVI asrning ikkinchi yarmidagi Buxoro xonligi hamda XVIII asrdagi Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi elchilik aloqalari va savdo iqtisodiy munosabatlar yoritib o‘tilgan bo‘lib, bunda asosan 1558-1559- yillarda Buxoroda bo‘lgan Antoniy Jenkinson elchiligidan tortib, Buxoro amirligining Doniyolbiy hukmronligi davridagi Ernazarbiy Mahmud o‘g‘lining ikki davlat o‘rtasidagi elchilik munosabatlariga ko‘rsatgan ta’siri va ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni mustahkamlash uchun yuborilgan boshqa elchilarning missiyalari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘z: Buxoro, “Qubbat-ul islom” Moskva, Antoniy Jenkinson, S.V. Jukovskiy, Ivanov va Bagdanovich, diplomatiya savdo-iqtisodiy aloqalar, elchilik, missiya.

Buxoro azal-azaldan Buxxor (Vixar) - “ilmlar markazi” sifatida mashhur bo‘lgan. Islom dinni kirib kelgan davrda u “Buxoroyi Sharif” deb ulug‘langan, “Qubbat-ul islom” unvoni bilan sharaflangan. Buxoro Markaziy Osiyodagi tarixan boy o‘tmishga ega bo‘lgan shahar bo‘lib, Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan va jahon ilm-fani, madaniyatida o‘ziga xos qiyofasi, madaniy meros obyektlari, tarixiy-me’moriy yodgorliklari bilan ajralib turadigan eng qadimiy shaharlardan biri bo‘lganligi bizga ma’lum. O‘rta asrlarda Buxoro xonligi qo‘shni Sharq davlatlari bilan bir qatorda G‘arb davlatlari bilan ham o‘zaro savdo-iqtisodiy munosabatlari o‘rnatgan edi. Xususan, O‘rta Osiyo xonliklari Rossiyaning ham e’tiborini torta boshlagan edi. XVI asrdan boshlab O‘rta Osiyoda xonliklar davri boshlanadi. Har bir



xonlik o‘zini savdo-iqtisodiy va chegaralarini mustahkamlash maqsadida qo‘shni davlatlar bilan diplomatik aloqalarni o‘rnata boshlagan. Shu davlatlar orasida Rossiya bilan o‘rnatilgan aloqalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Rossiya bilan munosabatlar dastlab an‘anaviy tarzda boshlangan bo‘lsa, XVI asrning ikkinchi yarmidan rasmiy tus ola boshlagan. Shuni ta’kidlash lozimki, bu aloqalardan har ikki mamlakat aholisi manfaatdor bo‘lgan. O‘rta Osiyo tovarlariga Rossiyada, rus tovarlariga esa O‘rta Osiyoda katta ehtiyoj mavjud bo‘lgan. Shuning uchun ular o‘rtasidagi aloqalar mustahkamlanib, asta-sekin rivojlana borgan.

Bu holatni Antoniy Jenkinson boshchiligidagi elchilikning 1558-yil 23-dekabrda Xiva va Buxoroga tashrif buyurishida ko‘rishimiz mumkin. Rus olimi S.V. Jukovskiy Jenkinsonning Buxoroga borishi haqidagi fikrlarini bayon qilib quyidagicha yozadi: “Aytish qiyin, nahotki Jenkinson chindan ham Ivan Grozniyni (birinchi rus podshosi 1547-1584-yillarda.) o‘z tomoniga og‘dirib olgan va go‘yo Ivan Grozniy inglizlarga yoqish uchun uni O‘rta Osiyoga borishiga ruxsat bergan. Jenkinsondan balki podsho foydalangandir va uni 1557-yilda Rossiyada erkin savdo qilishlari uchun ruxsat so‘rab hadya hamda tortiqlar bilan Moskvaga kelgan Xiva va Buxoro elchilik missiyasiga javob tariqasida Jenkinsonni Buxoro va Xivaga elchi qilib yubormadimikan?” S.V. Jukovskiyning ma’lumotiga ko‘ra, Moskvaga rus yerlarida erkin savdo qilishga ruxsat so‘rab Xiva va Buxorodan elchilar kelgan va bu elchilikka javob tariqasida A. Jenkinson elchiligi jo‘natilgan [1, 3-b].

Yuqoridagi fikrlarga tayanib, aytishimiz mumkinki, Jenkinson Rossiyaning Buxoroga yuborgan birinchi rasmiy elchisi edi. Podsho O‘rta Osiyo bilan savdo aloqalarini o‘rnatish va mustahkamlash maqsadida ingliz savdogari Jenkinsonga rasmiy yorliq bergan. Jenkinsonning Rossiya nomidan O‘rta Osiyoga jo‘natilishi, Rossiyaning O‘rta Osiyo savdosida ma’lum bir manfaati bo‘lganligidan dalolat beradi va bu elchilik Rossiya bilan O‘rta Osiyo o‘rtasida savdo aloqalarining rivojlanishiga yo‘l ochgan bo‘lishi mumkin. Buxoro xonligi bilan Rossiya o‘rtasidagi elchilik aloqalari xususida mahalliy manbalar ham ma’lumot beradi. Hofiz Tanish Buxoriy Moskvaga jo‘natilgan elchilarining mamlakatga



qaytib kelishi chogʻida Urganchda ham boʻlganligi elchilarning u yerda ushlanib qolinganligi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar bir qancha manbalarda oʻz tasdigʻini topgan. [2, 119-b].

XVIII asr boshlarida Buxoroda siyosiy vaziyat juda ogʻir boʻlgan. Xon hokimiyati nomigagina saqlanib qolgan edi. 1721-1725 yillarda Oʻrta Osiyoda boʻlgan Florio Beneveni ekspeditsiyasi bu siyosiy holatning guvohi boʻlgan. Bu ekspeditsiya Buxoro xonining rus podshosidan elchi yuborishini soʻrab qilgan murojaatiga javoban joʻnatilgan edi. Elchilikdan koʻzlangan asosiy maqsad, 1718-yil 13-iyuldagi “Koʻrsatma”da Buxoro xonligining ichki ahvolini toʻla-toʻkis oʻrganish, deb belgilangan edi. Bundan tashqari, Buxoro xonligining qoʻshni Sharq davlatlari bilan savdo munosabatlarini oʻrganish, hamda rus-buxoro savdo aloqalarini rivojlantirish imkoniyatlarini topish vazifasi ham oʻrin olgan edi [3].

Tarixiy manbalardan maʼlumki, XVIII asr ikkinchi yarmidan boshlab, Rossiya savdo-iqtisodiy aloqalarida Oʻrta Osiyo xonliklari, xususan, Buxoro amirligining ahamiyati ortib borgan. Bunda birinchidan, Rossiyada rivojlanib borayotgan sanoat uchun xomashyo manbalarni topishga intilish, ikkinchidan Osiyoda ayniqsa Hindistonda Angliya taʼsirining kuchayib borayotganligi sabab boʻlgan. Doniyolbiy davrida Buxoro va Rossiya davlatlari oʻrtasida savdo-iqtisodiy aloqalarining yangi davriga tamaltoshi qoʻyildi desak mubolagʻa boʻlmaydi. Buxoroning xorij mamlakatlari bilan elchilik va savdo aloqalari tobora rivojlanib bordi.

Ernazar elchi Buxoro amirligining Rossiyaga yuborgan elchilarining rahbari boʻlgan. U madrasada oʻqigan boʻlib, 1745 yildan boshlab, Rossiyaga bir necha marta tijorat maqsadida borib, imperator Yelizaveta Petrovna qabulida boʻlgan. Savdo ishlari bilan Xuroson va Hindistonga ham borgan. Keyinchalik Buxoro hukmdori Doniyolbiy otaliq tomonidan 1774-1776-yillarda va 1779-1780-yillarda Rossiyaga yuborilgan 2 ta elchilik missiyasiga boshchilik qilgan [4, 96-97-b].



Ernazar elchi Rossiyada o'z vazifasini to'liq uddalagach, 1795-yilda Buxoroda madrasa qurdirgan. Amir Shohmurod tomonidan Mulla Muhammad Ernazarbiy Maqsud o'g'li Turkiyaga elchi sifatida yuborilgan va o'sha yerda yashab vafot etgan. 1803-yil iyul oyida Orsk krepostidan savdo karvonini Buxoroga birinchi marta harbiy eskort mudofaasi ostida jo'natishdi. Harbiy soqchilar bilan kuzatilayotgan savdo karvoni bilan elchi va safarning boshlig'i Gaverdovskiy, doktor Bolshoy, karvonboshilardan Ivanov va Bagdanovich, tarjimonlardan Bekjonov va Bekchurinlardan iborat Buxoroga rus elchiligi yuborildi. Diplomatik munosabatlar ham tobora mustahkamlanib bordi. 1804- 1808 yillarda Buxoro xonligidan Rossiyaga Miralouddin, 1816-yil hamda 1819-yilda Mirza Muhammadyusuf qo'rchiboshi boshliq elchiliklar yuborildi. Rossiya ham Buxoro xonligi bilan aloqalarni muntazam olib borish uchun Buxoroga o'z elchi va missiyalarini yuborib turardi [5, 17-18-b].

Mana shunday qilib Buxoro xonlik va amirlik bo'lgan davrida ham iqtisodiy va siyosiy jihatdan qo'shni davlatlar bilan elchilik hamda diplomatik aloqalarni o'rnatib doimiy ravishda mustahkamlab borgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekistonning ko'p ming yillik tarixida Buxoro alohida ahamiyatga ega bo'lgan davlat sanalgan. U xonlik va amirlik bo'lgan vaqtlarda ham tashqi aloqalardan uzilib qolmadi. Ayniqsa bu diplomatik aloqalar va elchilik munosabatlari Rossiya imperiyasi o'rtasida jadallik bilan kechdi. Bu elchilik munosabatlarning barchasi o'z navbatida ikki davlat manfati ko'zlangan edi va savdo-sotiqqa alohida e'tibor berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- [1] Жуковский С. В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. –Пг., 1915.С.3
- [2] Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma ("Sharafnomayi shohiy"). Ikkinchi kitob. – Toshkent, "Sharq", 2000. 119- B.



[3] BUXORO AMIRLARINING XVIII-XIX ASRLARDA TASHQAI SAVDOSI VA DIPLOMATIK ALOQALARI HAQIDA AYRIM MALUMOTLAR

[4] История Узбекистана в источниках. Т.1988. с.96-97

[5] Мухаммаджонов А.Р., Нейматов Т.Н. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. Т.; Фанлар Академияси нашриёти. 1957 й. 17-18 бетлар